

2023
6(14)

IQTISODIYOT VA TURIZM
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ
международный научно-
инновационный журнал

ECONOMICS AND TOURISM
international scientific and
innovative journal

ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-2561





ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-256X

"IQTISODIYOT VA TURIZM"
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»
международный научно- инновационной журнал

"ECONOMICS AND TOURISM"
international scientific and innovative journal

№6(14) 2023

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022 yil 30 apreldagi 315/5-son qarori bilan iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



MUNDARIJA

Cao Gang. Multi-perspective analysis of trade data between China and five Central Asian countries under the belt and road initiative	5
Алимова Машхура Тоирхоновна. Самарқанд вилоятида худудий туристик кластерни шакллантириш алгоритми	14
Адилова Зулфия Джавдатовна, Гулмуродов Камолиддин Абдуқодир ўғли. Меҳнат бозорида миграция жараёнларини социологик баҳолаш	22
Жамолов Мирзабек Миржалил ўғли. Влияние внешнего долга на государственную финансовую безопасность: анализ и стратегии управления.....	33
Saidkulova F.F. The level of effectiveness of developing economic comprehension in students.....	43
Хомидов Сохибмалик Олимович. Фармацевтика тармоғида инвестиция лойиҳаларини танлаш ва самарадорлигини баҳолашнинг иқтисодий-математик усуллари	54
A.A.Qodirov. O‘zbekiston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari, muammo va yechimlar	69
Д.Б. Ўроқова. Туристик худудларда хизматлар кўрсатиш соҳасини давлат томонидан кўллаб-қувватлашнинг инновацион механизмини шакллантириш	78
Nazarov Shohbek Isroilovich. Conceptual basis of socio-economic development of districts of Bukhara region	88
Ramazonova Zarnigor. Increasing the competitiveness of the leading sectors of the national economy due to modernization and diversification	96
Alimova Dildora Damirovna. Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatida resurs salohiyatining mohiyati va roli	101
Yuldashev Feruz Isroil o'g'li. Ta'lim jarayonlari sifatini oshirishda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi mutanosiblikni samarali boshqarishning ahamiyati	108
Рахмонқулова Нафиса Олимжон қизи. Кичик саноат зоналарининг худудлар иқтисодийетини ривожлантиришдаги ўрни	116
Muminov Sh.H., Sattarov R.A. Irrigation Water Use Payments and Policies in Developing Countries	124
Т.О.Умаров. «Рақобат» ва «рақобатбардошлик» тушунчаларининг тузилмавий ва функционал моҳияти.....	129
Ш.Я.Абдусаидова. Показатели развития рынка гостиничных услуг в Узбекистане.....	136
Yuldosheva Bibirajab, Hamidov G`olib. O`rta Osiyo xonliklarining siyosiy tarixiy geografiyasi	143
Baxtiyorova Umida Ulug`bek qizi. O‘zbekistonda xususiy sektor subyektlari tomonidan xodimlarni boshqarish va rag‘batlantirishni muvofiqlashtirish	150
D.Sh.Yavmutov. Mintaqani yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida barqaror rivojlanishi istiqbollari.....	157

UO'K: 332.01

D.Sh. Yavmutov

**Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot
kafedrasi dotsenti, i.f.n., O'zbekiston**

MINTAQANI YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHI ISTIQBOLLARI

Annotasiya. Maqolada hududiy iqtisodiy barqaror rivojlanishga erishish maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan va prognoz parametrlari ishlab chiqilgan, O'zbekistonda mintaqalarni barqaror rivojlantirishning SWOT tahlili amalga oshirilgan.

Abstract. In order to achieve sustainable regional economic development, the article analyzes the prospects for regional ecological and economic sustainable development in the context of the transition to a green economy, develops forecast parameters for the transition to a green economy, and conducts a SWOT analysis of sustainable development in the regions of Uzbekistan.

Аннотация. В целях достижения устойчивого регионального экономического развития в статье анализируются перспективы регионального эколого-экономического устойчивого развития в условиях перехода к зеленой экономике, разработана прогнозная параметры перехода к зеленой экономике, проводится SWOT-анализ устойчивого развития регионов Узбекистана.

Kalit so'zlar. Mintaqa, iqtisodiy rivojlanish, barqaror rivojlanish, mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiyot, dekorbanizatsiya, ARMA ARMA(1,1) ARMA(2,1) ARMA(1,2), strategiya, istiqbol, prognoz.

Key words: Region, economic development, sustainable development, regional development, economy, deurbanization, ARMA ARMA(1,1) ARMA(2,1) ARMA(1,2), strategy, prospect, forecast.

Ключевые слова: Регион, экономическое развитие, устойчивое развитие, региональное развитие, экономика, дезурбанизация, ARMA ARMA(1,1) ARMA(2,1) ARMA(1,2), стратегия, перспектива, прогноз.

Kirish. Bizga ma'lumki, yashil iqtisodiyot deganda bir nechta iqtisodiy-hududiy tizimlarning birlashtirilgani tushuniladi. Bu iqtisodiy-hududiy tizimlar atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy farovonlikni oshirish maqsadlari birlashmasidir. Iqtisodiyotni rivojlantirish va tabiiy resurslardan samarali foydalangan holda atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarni kamaytirish har bir davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiy faoliyatda uglerod chiqindilarini, asosan, karbonat angidrid (CO₂) kabi issiqxona gazlarini chiqarishni kamaytirish yoki yo'q qilish jarayoni hozirda jahon mamlakatlarining o'z oldida turgan asosiy maqsadlardan biri hisoblabadi.

O'zbekistonda mintaqalarning ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishi prognozlarini ishlab chiqish zarurati hududlarda ishlab chiqarishning, butun iqtisodiyot tarmoqlarining ekologiyalashuvini, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishini talab qiladi. Muallif yuqoridagilarni inobatga olib O'zbekiston mintaqalarining ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish uchun istiqbol parametrlarini, prognozlarini taklif qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy adabiyatlarda yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish masalalarining tadqiqoti uncha uzoq bo'lmagan davrni o'z ichiga oladi. Uzoq xorijiy olimlar tomonidan ushbu masalalar tadqiqi nibatan oldinroq boshlangan bo'lsada, yaqin xorij hamda mahalliy olimlar tomonidan ushbu masalalar tadqiqi yaqin o'tmishdan boshlanganini ko'ramiz.

Yunchji Lyu, Junszin Yan, Meyin Sun, Le Chjan, Syuxun Li, Lin'yuy Men, Ichjuo Van, syan Lyu muallifligida tayyorlangan "Ekologiya va iqtisodiyot kordinatsiyasiga asoslangan holda barqaror rivojlanishning mintaqaviy strategiyasi" nomli tadqiqot ishida Xitoy Respublikasining

Sichuan provinsiyasi misolida ma'muriy birliklarda ekologik sifat va iqtisodiy indeksarga erishida barqaror rivojlanish tajribasi tahlil qilingan¹.

Yeve-Luz Texada-Guterres, Zofiya Koloshko-Xomentovska, Marianonietta Fiore va Alessiya Spadalar o'zlarining "Mintaqaviy jihatdan ekologik barqaror rivojlanish: Polsha misolida qiziqarli tajriba" nomli tadqiqot ishida Polshada hududiy jihatdan ekologik rivojlanishda barqarorlikka erishish tajribasi bayon qilingan².

K.Klement, M.Xansen, K.Bredlining "Mintaqaviy barqaror rivojlanish: Shimoliy mamlakatlar tajribasini o'rganish" nomli tadqiqotida Yevropa Ittifoqining shimoliy mamlakatlari – Daniya, Shvesiya va Norvegiya misolida mintaqaviy barqaror rivojlanish xususiyatlari ochib berilgan³.

I.Buzko, Ye.Varatanova, I.Trunina, I.Xovrakning "Yevropa Ittifoqida mintaqaviy barqaror rivojlanishning nazariy jihatlari" nomli maqolasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida hududiy barqaror rivojlanish tendensiyalari tadqiq qilingan⁴.

V.A. Vasilenkoning "Mintaqalarning barqaror rivojlanishi: yondoshuvlar va tamoyillar" nomli monografiyasida⁵ barqaror rivojlanishning kontseptual asoslarini shakllantirish jarayoni va bu boradagi ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. Ekologik barqaror rivojlanish yo'liga o'tishning asosiy tamoyillari ko'rib chiqilgan. Integral ilmiy yo'nalish hisoblanmish - atrof-muhitga ta'sirni baholash (strategik ekologik baholash) ning shakllanishi va shakllanish tendensiyalari ko'rsatilgan. Ekologik barqaror rivojlanish muammolari va ularni hal qilish amaliyoti ko'rib chiqilgan. Suv xo'jaligi muammolariga, jumladan, Sibir daryolari oqimining bir qismini janubga o'tkazishga alohida e'tibor qaratilgan.

D.S.Xayrulovning "Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorlik muammolari" nomli tadqiqot ishida mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishining ilmiy yondoshuvlari va qarashlar tahlil qilingan. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida muhim omil sifatida mintaqaviy rivojlanish omili asoslangan⁶.

M.A.Antonovanning "Mintaqalar barqaror rivojlanishini tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslari" nomli tadqiqot ishida mintaqalar va barqaror rivojlanish kategoriyalarining nazariy asoslari tadqiq qilingan. Majud yondoshuvlar tahlil qilinib, guruhlantirilgan, tasniflangan⁷.

"O'zbekiston mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari" maqolasida **M.T. Adilova** "Barqaror rivojlanish" konsepsiyasining mazmun-mohiyati, mintaqalarni barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, mintaqalar ekologik holatiga atmosfera havosi ifloslanishi ta'siri va ularni ekologik holati bo'yicha zonalarga ajratish, ekologik jihatlarni hisobga olgan holda mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish va "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish masalalari yoritilgan. Ekologik jihatlarni hisobga olgan holda mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish bo'yicha fikrlarni keltirgan⁸.

¹ Юньчжи Лю, Жунцзин Ян, Мэйин Сунь, Ле Чжан, Сюхун Ли, Линъюй Мэн, Ичжуо Ван, Цян Лю. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1470160X21011109>.

² Техада-Гутьеррес Е., Колошко-Хоментовска Э., Фиоре М., Спада А.. Устойчивое экологическое развитие с региональной точки зрения – интересный пример Польши. <https://www.mdpi.com/2071-1050/15/5/4368>.

³ Клемент К., Хансен М., Бредли К. Устойчивое региональное развитие: Изучение опыта Северных стран. <https://www.diva-portal.org/smash/get/diva2:700461/FULLTEXT01.pdf>.

⁴ Бузко И., Вартанова Е., Трунина И., Ховрак И. Теоретические аспекты региональной устойчивости развитие в ЕС и Украине. https://www.shsconferences.org/articles/shsconf/pdf/2019/02/shsconf_ies2018_01001.pdf.

⁵ Василенко В.А. Устойчивое развитие регионов: подходы и принципы. http://lib.ieie.nsc.ru/docs/2008/-Vasilenko_2008Ustojchivoe_Razvitie_Regionov.pdf.

⁶ Хайруллоев Д.С., Еремеев Л.М. Проблемы устойчивости социально-экономического развития региона // Вестник Казанского государственного аграрного университета. – Казань. – 2012. – №1. – С.73-76. https://kpfu.ru/docs/F1374583682/6_prob_st.pdf.

⁷ Антонова М.А.. Теоретико-методологические основы изучения устойчивого развития регионов. <https://eee-region.ru/article/3604>.

⁸ Adilova M.T. O'zbekiston mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/06/06/ozbekiston-mintaqalarini-barqaror-rivojlantirishning-iqtisodiy-ekologik-jihatlarini>.

Karimov Dilshadbekning “Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishda reyting baholash tizimining mohiyati va afzalliklari” maqolasida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va uning raqobatbardoshligini ta’minlashda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotining rivojlanish ko’rsatkichlarini shakllantirishda reyting baholash tizimining ahamiyati va afzalliklari, mamlakatimizda hududlar rivojlanish darajalarini qiyosiy va kompleks tahlil qilish asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, hududlarni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy mulohazalar bayon etilgan¹.

A. Nigmatov, R. Kulmatov, A. Rasulov, Sh. Muxamedovlarning “Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari” nomli monografiyasida² barqaror rivojlanish tushunchasining mazmuni va mohiyati, barqaror rivojlanish konsepsiyasining paydo bo’lishi va uning globallasuvi, barqaror rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish indikatorlari tushunchasi, turlari va ularni amalda qo’llash muammolari, barqaror rivojlanish indikatorlariga tizimli yondashuv, global barqaror rivojlanish indikatorlari, regional barqaror rivojlanish indikatorlari, Quyi Zarafshon okrugining barqaror rivojlanish indikatorlari tadqiq qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy jarayonlarini o’rganishning ilmiy usullari – tizimli tahlil, guruhlash, umumlashtirish, kuzatish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, matematik modellashtirish, statistic tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy faoliyatda uglerod chiqindilarini, asosan, karbonat anhidrid (CO₂) kabi issiqxona gazlarini chiqarishni kamaytirish yoki yo’q qilish jarayoni **dekarbonizatsiya deyiladi. Dekarbonizatsiyaning asosiy maqsadi** – global miqyosda iqlim o’zgarishini sekinlashtirish, chiqindilarni kamaytirish hamda kelajakda uglerod neytral iqtisodiyotni yaratish hisoblanadi.

Iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash yani atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarni kamaytirish orqali iqtisodiyotni qay darajada rivojlanayotganini aniqlashda quyidagi ko’rsatkichni taklif qilamiz:

$$K_{I.D.} = \frac{YaIM}{IM} \quad (1\text{-formula})$$

Bunda : $K_{I.D.}$ – iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash ko’rsatkichi, YaIM – yalpi ichki mahsulot, IM - ifloslantiruvchi moddalar.

Taklif qilinayotgan bu ko’rsatkichning birligi **so’m/kg** bo’ladi. Yani iqtisodiyotni rivojlantirish bilan birga atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar chiqarilayapti. Atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarning har bir kilogrammiga qancha so’m to’g’ri kelayotganini aniqlab beradi. Yashil iqtisodiyotga o’tayotgan va o’rganiladigan har hudud, davlat uchun $K_{I.D.}$ - ko’rsatkich qanchalik yuqori bo’lsa, bu hudud yoki davlat shunchalik yashil iqtisodiyotga jadallashganini ko’rsatadi.

Yillar davomida bu ko’rsatkich O’zbekiston Respublikasi uchun o’rganildi. O’rganish natijalari quyidagi jadvalga keltirilgan (4.3.1-jadval)

4.3.1-jadval.

O’zbekistonda dekarbonizatsiya jaryonlari dinamikasi


Yillar	Yalpi ichki mahsulot hajmi (doimiy narxlarda) (mlrd. so’m)	Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (ming tonna)	Dekarbonizatsiya ko’rsatkichi (so’m/kg)
2010 yil	65838,9	729	90313,99
2011 yil	84876,7	788,2	107684,22
2012 yil	110564,6	817,6	135230,68
2013 yil	136899,9	855,2	160079,40

¹ Karimov D.M. Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishda reyting baholash tizimining mohiyati va afzalliklari. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23_Karimov_D_pdf.

²https://www.researchgate.net/publication/360081862_BARKAROR_RIVOZLANIS_VA_UNING_TIZIMLI_INDIKATORLARI.

2014 yil	163849,7	1162,1	140994,49
2015 yil	200316,3	975,1	205431,55
2016 yil	234481,8	1008,2	232574,69
2017 yil	266648,4	853,5	312417,57
2018 yil	376269,8	883,7	425789,07
2019 yil	505766,1	952,8	530820,84
2020 yil	603956,2	924,4	653349,42
2021 yil	721712,7	908,7	794225,49
2022 yil	869779,8	873,6	995627,06
2023 yil	1058208,7	763,2	1386541,80

Yuqoridagi jadval ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi uchun dekarbonizatsiya ko'rsatkichi 2010 yil 90313,99 so'm/kg ni tashkil qilyapti. Keyingi yillar davomida bu ko'rsatkich o'sib borganini ko'ramiz. Natijada 2023 yil uchun bu ko'rsatkich 1386541,8 so'm/kg ni tashkil qilgan. Yillar davomida bu ko'rsatkichning o'zgarishi bo'yicha qonuniyat aniqlashimiz kerak. Buning uchun yuqoridagi jadval ma'lumotlarini grafikka tasvirlashimiz kerak. Uning grafikdagi ifodasi quyidagicha:



4.3.1-rasm. O'zbekistonda dekarbonizatsiya jarayonlari dinamikasi

Bu yuqoridagi grafikda qanday qonuniyat mavjud ekanligini aniqlaymiz. Dastlab uning statsionarligini tekshirib ko'ramiz. Bunda uning ildizlari aniqlaganda $|z| = 1,0274$ ekanligi aniqlandi. Bu ildizdan esa uning statsionar ekanligini ko'ramiz. Demak aniqlanayotgan model ARMA (p,q) ko'rinishda ekan. Bunday ko'rinishdagi vaqtli qatorning matematik ifodasi quyidagicha:

$$X_t = \varphi_0 + \varphi_1 X_{t-1} + \varphi_2 X_{t-2} + \dots + \varphi_p X_{t-p} + a_t - \theta_1 a_{t-1} - \theta_2 a_{t-2} - \dots - \theta_q a_{t-q}$$

Bu model bo'yicha ham ARMA(1,1), ARMA(2,1), ARMA(1,2) va ARMA(2,0) ko'rinishidagi modellardan foydalanildi. Bular orasidan eng yaxshi natijaga ega ARMA(2,1) modeli tanlab olindi. Bu model orqali aniqlangan natijalar quyidagi jadvalga keltirilgan.

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>Z</i>	<i>p-value</i>
Const	1499440	19299	1,257	<0,0001
phi_1	1,93	0,008	2,47	<0,0001
phi_2	-0,95	0,007	-1,37	<0,0001
theta_1	0,02	0,004	0,0049	<0,0001

Yuqoridagi jadval asosida aniqlangan ARMA(2,1) modelning ko'rinishi quyidagicha:

$$X_t = 1499440 + 1,93X_{t-1} - 0,95X_{t-2} + a_t - 0,02a_{t-1}$$

ARMA(2,1) modeli orqali aniqlangan natijalarning ishonchligini belgilash orqali tekshirilgan kriteriyalarning natijalari quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

Mean dependent var	440791,4	S.D. dependent var	391425
R-square	0,985	Correct. R-square	0,982
Mean of innovations	5790,6	S.D. of innovations	6341,6
Log-likelihood	179,025	Akaike criterion	368,05
Schwarz criterion	371,24	Hannan-Quinn	367,75


Bu jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, barcha natijalar ijobiy baholanadi. Hamda taklif qilinayotgan ARMA(2,1) modelining ishonchligi yuqori darajada hisoblanadi.

Bu yuqoridagi model orqali 2024 – 2028 yillar davomidagi prognoz natijalari, standart xatolik va 95 foizda ishonchli oraliqlarni aniqlaymiz. Bu aniqlangan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Yillar	Prognoz natijasi	Standart xatolik	95% oraliq
2024 yil	1762699,45	63941	1637376-188022
2025 yil	2113603,05	139832	1839537-2287668
2026 yil	2433271,33	227147	1988071-2578471
2027 yil	2716687,95	231168,4	2087209-2979512
2028 yil	2959855,31	318200,17	2540198-3279512

Bu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil uchun kutiladigan dekarbonizatsiya ko‘rsatkichi 1762699,45 ni tashkil qiladi. Keyingi yillarning prognoz natijalari o‘shib borganini ko‘ramiz. Natijada 2028 yil uchun bu ko‘rsatkich 2959855,31 ni tashkil qilyapti.

Bu aniqlangan prognoz natijalarning hamda 95% ishonchli oraliqdagi natijalarning grafikdagi ifodasi quyidagicha (4.3.2-rasm):



4.3.2-rasm. O‘zbekistonda dekarbanizatsiya jarayonlari prognozi.

Prognoz qilinadigan yillarning o‘rtacha o‘shish qiymatini aniqlaymiz. U quyidagicha aniqlanadi:

$$K = \sqrt[5]{\frac{1762699,45}{1386541,8} \cdot \frac{2113603,05}{1762699,45} \cdot \frac{2433271,33}{2113603,05} \cdot \frac{2716687,95}{2433271,33} \cdot \frac{2959855,31}{2716687,95}} = \sqrt[5]{2,135} = 1,164$$

Yuqoridagi natijadan ko‘rishimiz mumkinki, prognoz yillarning o‘rtacha o‘sish sur‘ati 16,4 foizni tashkil qilar ekan.

O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha rivojlantirish Strategiyasi va O‘zbekiston respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish Startegiyasida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan 10 foizga kamaytirish belgilangan. Yuqoridagi prognoz natijalari bu rejaga erishish imkoniyatini ko‘rsatmoqda.

Mintaqlarni barqaror rivojlantirish metodologiyasida hududiy rivojlanishni turli usullarda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usullarga SWOT tahlil, PEST tahlil misol bo‘ladi.

O‘zbekistonda mintaqani yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida barqaror rivojlanishining SWOT tahlilini muallif amalga oshirdi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston mintaqalarida barqaror rivojlanishni ta‘minlashning SWOT tahlili

KUCHLI TOMONLARI (S)	KUCHSIZ TOMONLARI (W)
<ul style="list-style-type: none"> - mintaqalarning tabiiy resurslarga boyligi; - qulay tabiiy-iqlimiy sharoitlarning mavjudligi; - qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha jamlangan boy tajriba; - arzon va malakali ishchi kuchi mavjudligi; - ishlab chiqarish resurslari mavjudligi; - hududlar barqaror rivojlanishi uchun davlatning moliyaviy va institusional qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjudligi; - barqaror rivojlanish milliy va global maqsadlari ta‘minlanishning davlat tamonidan kafolatlanganligi; - yetarli huquqiy-me‘yoriy asoslarning yaratilganligi; - muqobil energiya manbalarini rivojlantirish uchun katta miqdordagi tabiiy resurslar mavjudligi va h.k. 	<ul style="list-style-type: none"> - barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda barcha mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini qamrab olgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmaganligi; - yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligi; - aholining ekologik sovdxonligi va ekologik madaniyati pastligi; - ishlab chiqarishda resurslar iste‘molining kattaligi; - O‘zbekiston o‘z hududida suv resurslari shakllanishining kamligi; - suv resurslari iste‘molida mintaqaning boshqa mamlakatlari bog‘liqlik yuqoriligi; - suv iste‘molida isrofgarchilik va yo‘qotishlarning kattaligi; - sug‘orishning ko‘p hollarda to‘la mashinalashgan usulga asoslanganligi; - yerlarning sho‘rlanishi bilan bog‘liq muammolar, ularni bartaraf etish uchun katta xarajatlarning mavjudligi; - yerdan foydalanuvchi xo‘jaliklarning xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalar bilan yaxshi ta‘minlanmaganligi, ular xizmatlarining qoniqarsizligi; - asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlariga davlat tomonidan narx belgilanishi va ularni sotib olish bo‘yicha davlat monopoliyasi o‘rnatilganligi va h.k.
IMKONIYATLAR (O)	XAVF – XATARLAR (T)
<ul style="list-style-type: none"> - yashil iqtisodiyotni rivojlantirish; - ekologik xavfni pasaytirish; - aholining ekologik sovdxonligini va ekologik madaniyatini oshirish; - barqaror rivojlanishning global va milliy maqsadlariga to‘liq erishish; - sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasida ishlab chiqarish hajmini va maydonlarini kengaytirish; - qishloq xo‘jaligida yer maydonlarining umudorligini oshirish; - barqaror rivojlanishga aholi va ishlab chiqarish 	<ul style="list-style-type: none"> - global va milliy darajadagi ekologik xavflarning kuchayishi; - iqlim o‘zgarishlari va global isish muammolari kuchayishi; - mintaqada suv resurslari taqchilligining kuchayishi; - mamlakatda aholi sonining tez o‘sishi va demografik muammolar; - xalqaro maydonda savdo va harbiy urushlar yuzaga kelishi; - siyosiy vaziyat tufayli turli

<p>tomonidan talabning ortishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - ekologik sof mahsulotlarga talabning ortishi; - tadbirkorlikni kengaytirish va rivojlantirish; - korxonalar uchun kredit – moliya amaliyotlarini soddalashtirish va takomillashtirish; - mintaqalarda ishlab chiqarishga innovasion texnologiyalarni va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilinishi; - qishloq xo‘jalik ekinlari hamda chorvaning hudud xususiyatlari e'tiborga olib yaratilgan mahalliy navlari va nasllarini joriy qilish; - organik o‘g‘itlar bilan o‘g‘itlash orqali yerlarning ekologik sifatini yaxshilash va ekologik toza mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish; - sanoatning resurstejamkor texnologiyalarga o‘tishi; - sug‘orish tizimlarining foydalanish koeffisientini oshiruvchi yangi texnologiyalarni joriy qilish; - sug‘orish usullarini takomillashtirish evaziga sug‘orishga olinayotgan suv resurslari miqdorini kamaytirish; - almashlab ekish tizimini qo‘llash orqali yerlarning sifatini yaxshilash; - yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va h.k.. 	<p>iqtisodiy va moliyaviy cheklovlar, sanksiyalar kuchayishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - mintaqalarda sanoatning rivojlanishi oqibatida sanoat ob'ektlari maydoni kengayishi; - yerlarning tabiiy unumdorligi pasayishi; - qishloq xo‘jalik korxonalari iqtisodiy erkinligida ma'muriy to‘siqlarning mavjudligi. - aholi turmush tarzini yaxshilanishi natijasida qishloq xo‘jalik mahsuloti sifati va ekologik tozaligiga nisbatan yuqori talablarning qo‘yilishi; - qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mavjud muammolarning kuchayishi orqali sohada investisiya jarayonlarining susayishi va h.k..
--	---

SWOT tahlildan ko‘rinmoqdaki, O‘zbekistondayashil iqtisodiyotga o‘tishning kuchli tomonlari yetarli saloiyatga ega, bo‘lishi bilan birga imkonlari ham katta ekanligini ko‘ramiz. Biroq, jadvaldan ko‘rinib turibdiku, agar vaqtida chora ko‘rib, xavfli tomonlarning oldi olinmasa, ularning ko‘lami kengayib, ta’siri ortadi. Bu o‘z navbatida jarayonlarni murakkablashtiradi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish maqsadlari doirasida 2024-2028 yillar uchun kutiladigan dekarbonizatsiya jarayonlarining prognoz ko‘rsatkilari ijobiy natijani bermoqda, lekin bu natijani yanada yaxshilash imkoniyati mamlakat mintaqalarida mavjud. Buning uchun albatta hududlarda sanoat ishlab chiqarishini hozirgi ko‘rsatkichlarini keskin pasaytirish, buning uchun respublikada ekologik soliqni, jumladan, uglerod solig‘ini joriy qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

O‘zbekistonda mintaqalarning ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish zarurati hududlarda ishlab chiqarishning, butun iqtisodiyot tarmoqlarining ekologiyalashuvini, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishini talab qiladi. Muallif yuqoridagilarni inobatga olib O‘zbekiston mintaqalarining ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini taklif qiladi.

O‘zbekistonda mintaqalarni ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish hududlar iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni talab qiladi. Bunga sabab hududlarda iqtisodiyot tarmoqlari hozirda asosan resurсталab va energiya talab ishlab chiqarishga asoslangan.

Mintaqani ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlantirish konsepsiyasi mamalakat va uning ma‘muriy birliklari ekologik siyosatining tarkibiy qismi bo‘lmog‘i lozim Barqaror qishloq xo‘jaligi hozirda ko‘plab hududlar, mamlakatlar tomonidan kelajak rivojlanish modeli sifatida tanlanmoqda va o‘zlarining bu boradagi strategiyalarini ishlab chiqishmoqda. Muallif ham O‘zbekistonda mintaqalarda yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishning maqbul yo‘li sifatida barqaror qishloq xo‘jaligini tavsiya qiladi. Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish asosida qishloq xo‘jaligining tarnsformatsiyasi turadi. Mintaqalarga yashil iqtisodiyotni joriy qilishda agrar tarmoq lokomotiv sifatida xizmat qiladi, boshqa tarmoqlarning ham yashillashuvini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Антонова М.А.. Теоретико-методологические основы изучения устойчивого развития регионов. <https://eee-region.ru/article/3604>.
2. Adilova M.T. O‘zbekiston mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/06/06/ozbekiston-mintaqalarini-barqaror-rivojlantirishning-iqtisodiy-ekologik-jihatlari>.
3. Бузко И., Вартанова Е., Трунина И., Ховрак И. Теоретические аспекты региональной устойчивости развитие в ЕС и Украине. https://www.shsconferences.org/articles/shsconf/pdf/2019/02/shsconf_ies2018_01001.pdf.
4. Burxonov S., Khamidov O., Yavmutov D. Buxoro viloyatida sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish muammolari va ularni yaxshilash yo‘llari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 41. – №. 41.
5. Бурхонов, Ж. Х. Ў., & Явмутов, Д. Ш. (2022). Экологизация экономики возможности и перспективы развития «зеленой» экономики в Узбекистане. *Science and Education*, 3(6), 114-118.
6. Василенко В.А. Устойчивое развитие регионов: подходы и принципы. http://lib.ieie.nsc.ru/docs/2008/Vasilenko-Ustojchivoe_Razvitie_Regionov.pdf.
7. Dilshod, Yavmutov, and Burkhonov Sardor. "O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishi: istiqbol yo‘nalishlar va ustuvor vazifalar." *Journal of new century innovations* 10.2 (2022): 159-168.
8. Karimov D.M. Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishda reyting baholash tizimining mohiyati va afzalliklari. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23_Karimov_D_pdf
9. Клемент К., Хансен М., Брэдли К. Устойчивое региональное развитие: Изучение опыта Северных стран. <https://www.diva-portal.org/smash/get/diva2:700461/FULLTEXT01.pdf>.
10. Sayfiyev, Ibrokhim, and Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich. "Анализ Степени Озеленения Отраслей Экономики Бухарской Области." *Miasto Przyszłości* 51 (2024): 120-123.
11. Сайфиев, И. и Явмутов, Д.С. (2024). Переход к зеленой экономике в ЕС: анализ политических и экономических сдвигов. *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ БИЗНЕС-СТАРТАПОВ И ОТКРЫТОГО ОБЩЕСТВА*, 4 (8), 1-4.
12. Техада-Гутьеррес Е., Колошко-Хоментовска З., Фиоре М., Спада А.. Устойчивое экологическое развитие с региональной точки зрения –интересный пример Польши. <https://www.mdpi.com/2071-1050/15/5/4368>.
13. Зеленое восстановление и переход к зеленой экономике в Узбекистане. <https://www.undp.org/docs./Green-Recovery/>.
14. Хайруллоев Д.С., Еремеев Л.М. Проблемы устойчивости социально-экономического развития региона // Вестник Казанского государственного аграрного университета. – Казань. – 2012. – №1. – С.73-76. https://kpfu.ru/docs/F1374583682/6_prob_st.pdf.
15. Shoimardonkulovich, Yavmutov Dilshod, and Sharapova Nigina Kadirovna. "GREEN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN." *Gospodarka i Innowacje*. 23 (2022): 102-104.
16. Юньчжи Лю, Жунцин Ян, Мэйин Сунь, Ле Чжан, Сюхун Ли, Линъюй Мэн, Ичжуо Ван, Цян Лю. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1470160X21011109>
17. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржонова Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
18. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржонова, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.

19. Yuldosheva B. The current state of green spaces and their historical changes in Bukhara City //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 84. – С. 01039.
20. Явмутов, Д. Ш. (2024). SANOATNI YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 1(15).
21. Yavmutov, D. (2023). Yashil iqtisodiyotga o'tishda xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.
22. Shoyimardonqulovich, Y. D., & Aminjon, U. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINI RAQAMLASHTIRISH. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 55-58.
23. Явмутов, Д. Ш. (2021). ПРОБЛЕМЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ БУХАРСКОГО ВИЛОЯТА И ПУТИ ИХ УЛУЧШЕНИЯ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 2(2).
24. Yavmutov D. Sh., Burxonov J., Karimova K. YaShIL IQTISODIYOTNI QO'LLASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH IMKONIYATLARI //" Ekonomika i turizm" mejdunarodnyy nauchno-innovatsionnoy jurnal. – 2023. – T. 2. – №. 10.

Muassislar:
Buxoro davlat universiteti
“Economic science” mas'uliyati cheklangan jamiyati

<p style="text-align: center;">"IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali</p> <p style="text-align: center;">2023-yil 6-son (14)</p> <p style="text-align: center;">2021-yildan chiqa boshlagan.</p> <p style="text-align: center;">OBUNA INDEKSI: 200117</p> <p style="text-align: center;">Manzil: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy, 2-bino, 403-xona.</p>	<p style="text-align: center;">ilmiy va innovatsion nashri</p> <p style="text-align: center;">Jurnal oliy o'quv yurtlarining professor- o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan.</p> <p style="text-align: center;">Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p style="text-align: center;">Nashr uchun mas'ul: Gavhar XIDIROVA Muharrir: Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich</p>	<p style="text-align: center;">Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p style="text-align: center;">Bosishga ruxsat etildi 10.12.2023 Bosmaxonaga topshirish vaqti 16.12.2023 Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 26,7 Adadi – 100 nusxa Buyurtma №684. Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p style="text-align: center;">“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.</p>
---	--	---